

+998 555 100 300
WWW.UZSE.UZ

100170, O'ZBEKISTON, TOSHKENT,
MUSTAQILLIK 107



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

PRESS - RELIZ

**FEVRAL
2026**



MUNDARIJA

SAVDO YAKUNLARI	3
BIRJA SAVDOLARI	4
Birja savdolari sharhi	5
Birja bozorlari va maydonchalari sharhi	6
Emitentlarning bozor kapitalizatsiyasi	7
UCI indeksi	8
Narxlar o'zgarishi	8
Main Board bo'yicha Top-10 aksiyalar	11
Obligatsiyalar bozori	12
Tarmoqlar tuzilmasi	13
Birja kotirovkalash varag'i	14
LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI	16
LTSM savdolari sharhi	17
Main Board bo'yicha LTSM Top-10 aksiyalar	19
DISKLEYMER	21

SAVDO YAKUNLARI

64 294

Bitimlar soni

1,65 trln

Savdolar hajmi

14,14 mlrd

***Savdoda ishtirok etgan
qimmatli qog'ozlar***

20 kun

Savdo kunlari

225

***Savdo qilingan
instrumentlar soni***

189

***Savdoda ishtirok etgan
emitentlar soni***

FEVRAL
2026



TOSHKENT
RESPUBLIKA FOND BIRJASI

BIRJA SAVDOLARI

BIRJA SAVDOLARI SHARHI

Fevral oyi davomida "Toshkent" RFB birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan 64 ta emitentning 3,22 mlrd qimmatli qog'ozlari bilan 1,45 trln so'mlik 53 948 ta bitim tuzildi. 99 ta emitentning 140,95 mlrd dona qimmatli qog'ozlari savdoga qo'yildi.


Eng yirik bitimlar hajmi 3-fevral kuni qayd etilgan bo'lib, u 1,01 trln so'mga teng bo'lgan va ushbu oydagi jami bitimlarning 69,26 foizini tashkil etdi. O'sha kuni "Asakabank" AJ /ASAK4B5/ obligatsiyalari bilan umumiy qiymati 1,00 trln so'mlik bitimlar tuzildi.

Bu ko'rsatkich "Main Board" savdo maydonchasidagi obligatsiyalar bo'yicha bitimlar umumiy hajmining 70 foizini tashkil etdi. Eng kam bitimlar hajmi 20-fevral kuni qayd etilgan bo'lib, jami 784,47 mln so'mlik 2 727 ta bitim tuzildi.

Fevral oyida birja kotirovkalash varag'i qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarning o'rtacha kunlik soni 2 697 tani, savdolarining o'rtacha kunlik hajmi esa 72,63 mlrd so'mni tashkil etdi.

O'tgan oyga nisbatan taqqoslanganda, bitimlar soni 21,51 % ga kamaygan, ularning hajmi esa 2 391,38 % ga oshgan.

FEVRAL OYIDAGI SAVDOLAR HAJMI VA BITIMLAR SONI



BIRJA BOZORLARI VA MAYDONCHALARI SHARHI

Savdolarning umumiy hajmi 1,45 trln so'm (118,82 mln dollar)ga yetdi. Eng ko'p bitimlar "Stock Market"ga to'g'ri keladi: 57 ta emitent va umumiy hajmi 29,34 mlrd so'm (2,4 mln dollar) bo'lgan 51 926 ta bitimdan iborat. Eng katta savdo hajmi "Bond Market"da shakllangan bo'lib, 2020 ta bitim bilan 1,42 trln so'm (\$116,42 mln)ni tashkil etdi.

Shuningdek, "Repo Market" savdo maydonida "AGAT CREDIT" AJ obligatsiyalari bilan jami 952,90 ming so'mlik 2 ta bitim tuzildi.

Nº	Savdo tizimi bo'limlari	Emitent lar soni	Bitimlar soni	Qimmatli qog'ozlar soni	Bitimlar hajmi (so'm)
I.	«Stock Market»:	57	51 926	3 224 427 328	29 341 861 739,22
1.	G1 - «Main Board»	56	51 924	3 223 831 038	26 190 210 382,32
2.	T1 - "Nego Board"	2	2	596 290	3 151 651 356,90
II.	«Bond Market»	7	2 020	388 854	1 423 206 078 039,05
1.	G1 - «Main Board»	7	2 020	388 854	1 423 206 078 039,05
III.	“Repo Market”	1	2	14	952 903,52
1.	R1 - “Repo Nego Board”	1	2	14	952 903,52
Jami		64	53 948	3 224 816 196	1 452 548 892 681,79

AKSIYALAR BOZORI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	94 797	945 243	84 095	1 224 978	29 342
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	4 740	47 262	4 005	61 249	1 467
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	13,5	59,6	1,9	31,3	0,57
Bitimlar soni	dona	7 015	15 852	45 196	39 104	51 926
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	351	793	2 152	1 955	2 596

EMITENTLARNING BOZOR KAPITALIZATSIYASI


Aksiyalarning bozor kapitallashuvi 26,51 trln so'mga yoki 7,91% ga oshib, jami 321,69 trln so'm (26,51 mlrd dollar)ni tashkil etdi. Erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning bozor kapitallashuvi (free-float) 5,94 trln so'm (\$489,22 mln)ni tashkil qildi.

Oyning yakuniga ko'ra, Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 83 ta aksiya emitentining 121 ta instrumentlari mavjud edi.

UCI INDEKSI

Oy yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 7,92% ga oshib, 843,52 punkt darajasida yopildi.

2026-YIL FEVRAL OYIDAGI UCI INDEKSI GRAFIGI



Indeksning maksimal qiymati 27 fevral kuni qayd etilib, 843,52 punktga yetdi. Oy davomida indeksning minimal qiymati 9 fevral kuni qayd etilgan bo'lib, 751,48 punktni tashkil etdi.

NARXLARNING O'ZGARISHI

Oy davomida aksiyalar narxi -32,26% dan +257,14% gacha bo'lgan oraliqda o'zgardi. Kotirovkalarning eng katta o'sishi "Kapital sug'urta" AJ /KASUP/ va "O'zagrosug'urta" AJ /UZAS/ aksiyalariga to'g'ri kelib, ularning qiymati mos ravishda 0,25 so'm va 16 800,00 so'mgacha oshdi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 27.02.2026	Yopilish narxi 30.01.2026	O'zgarish %
KASUP	AJ "Kapital sug'urta"	0,07	0,25	257,14%
UZAS	AJ "O'zagrosug'urta"	8 900,00	16 800,00	88,76%
BNGPP	AJ "Buxoroneftgazpirmalash"	7 000,00	12 500,01	78,57%
UPOSP	AJ "O'zbekiston pochta"	25 000,00	43 200,01	72,80%
UTGA	AJ "O'ztransgaz"	64 500,00	100 200,00	55,35%
IPTBP	ATIB "Ipoteka-bank"	4,99	7,23	44,89%
UNVB	ATB "Universal bank"	8 215,01	11 111,00	35,25%
UZMK	AJ "O'zmetkombinat"	3 611,00	4 600,00	27,39%
MCBA	ATB "Mikrokreditbank"	795,04	980	23,26%
UZTLP	AK "O'zbektelekom"	4 996,00	6 100,00	22,10%


Shu bilan birga, "TDM" AJ /TKDMP/ va "Tashgiprogor" AJ /TGPG/ aksiyalari eng katta pasayishni ko'rsatib, hisobot davrini mos ravishda 3 899,99 so'm va 62 400,00 so'm darajasida yakunladi.

Tiker	Emitent	Yopilish narxi 27.02.2026	Yopilish narxi 30.01.2026	O'zgarish %
TKDMP	AJ "TDM"	5 757,57	3 899,99	-32,26%
TGPG	AJ "Tashgiprogor"	78 000,00	62 400,00	-20,00%
YRFS	AJ "Yo'lreftrans"	3 900,00	3 299,99	-15,38%
TRSB	XAB "Trastbank"	9 449,99	8 261,00	-12,58%
TBNBP	ATB "Turonbank"	3 399,01	3 000,00	-11,74%
ODDM	AJ "Oq Oltin Don Mahsulotlari"	13 000,00	11 600,00	-10,77%
SQBN	ATB "O'zsanoatqurilishbank"	36,5	32,8	-10,14%
IPTB	ATIB "Ipoteka-bank"	2,28	2,07	-9,21%
METQ	AJ "METQ"	20 000,00	18 200,01	-9,00%
MCBAP	ATB "Mikrokreditbank"	12 049,99	11 000,00	-8,71%

MAIN BOARD BO'YICHA TOP-10 AKSIYALAR


2026-yil fevral oy yakunlariga ko'ra, G1 – "Main Board" aksiyalari bozorining asosiy savdo maydonchasida jami 51 924 ta bitim amalga oshirilib, ularning umumiy qiymati 26 190,21 mln so'mni tashkil etdi.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Hisobot davrida eng ko'p bitimlar "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBN/ va "O'zRTXB" AJ /URTS/ qimmatli qog'ozlari bilan mos ravishda 4 375 ta va 3 507 ta bitim amalga oshirildi. Top-10 ro'yxatini "O'zmekombinat" AJ /UZMK/ va "O'zbektelekom" AK /UZTL/ aksiyalari yakunlab, ular bilan mos ravishda 1 948 ta va 1 918 ta bitim tuzildi.

SAVDO HAJMI BO'YICHA TOP-10, MLN SO'M



Eng yuqori hajm "O'zbektelekom" AK /UZTL/ va "O'zsanoatqurilishbank" ATB /SQBN/ aksiyalari bilan mos ravishda 10 074,78 mln so'm va 5 908,78 mln so'mga erishildi. Shu bilan birga, "Main Board" savdo maydonchasida sotilgan Top-10 emitentning qimmatli qog'ozlari umumiy hajmi 24 764,08 mln so'mni yoki aksiyalar bozoridagi umumiy savdo hajmining 94,55%ni tashkil etdi.

OBLIGATSIYALAR BOZORI


Hisobot davri oxirida "Bond Market" obligatsiyalar bozorida jami 2 020 ta bitim amalga oshirilib, umumiy qiymati 1,42 trln so'mni tashkil etdi. Savdolarning eng yuqori hajmi 3-fevral kuni qayd etilib, 1,00 trln so'm (82,08 mln dollar)ni tashkil qildi.

Shu kuni "Bond Market"ning "Main Board" asosiy maydonchasida "Asakabank" AJ obligatsiyalari /ASAK4B5/ bilan jami 1,00 trln so'm qiymatidagi bitim amalga oshirildi va bu obligatsiyalar bilan o'tkazilgan savdolar umumiy hajmining 70,26%ni tashkil etdi.

Keyingi o'rinlarda "MAKESENSE" MCHJ /UZUMN2B3/ va "AGAT CREDIT" AJ /ACMT2B4/ obligatsiyalari bo'lib, ularning umumiy qiymati mos ravishda 375,69 mlrd so'm va 19,48 mlrd so'mni tashkil qildi.

Obligatsiyalarning bozor qiymati 1,30 trln so'mga (+51,60%) oshib, 3,81 trln so'm (313,70 mln dollar)ni tashkil etdi. Instrumentlar soni ham 3 ta obligatsiyaga oshib, jami 31 ta instrumentga yetdi.

INSTRUMENTLAR BO'YICHA OBLIGATSIYALAR BILAN SAVDOLAR HAJMINING ULUSHI, %




OBLIGATSIYALAR BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2022	2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	309	666	2 201	2 499	1 423 206
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	15	33	105	125	71 160
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	103	35,1	14	6,9	704,56
Bitimlar soni	dona	3	19	157	364	2 020
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	1	1	7	18	101

TARMOQ TUZILMASI

Oy davomida "Toshkent" RFBda birja kotirovka varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan iqtisodiyotning 14 ta tarmog'i bo'yicha bitimlar tuzildi.

2026-YIL FEVRAL OYIDAGI BITIMLAR HAJMI TARMOQLAR KESIMIDA, %



Banklar 69,39%
 Aloqa 0,70%
 Sug'urta 0,03%
 Energiya 0,01%

Boshqalar 26,67%
 Transport 0,21%
 Ko'chmas mulki 0,02%


Moliyaviy xizmatlar 2,79%
 Sanoat 0,17%
 Mashinasozlik 0,01%

Bitimlarning eng katta hajmi “Banklar” tarmog’iga to’g’ri kelib, ular bilan 1,01 trln so’m qiymatidagi 24 600 ta bitim amalga oshirildi, bu jami bitimlarning 69,39%ini tashkil etdi. Keyingi o’rinlarda “Boshqalar” va “Moliyaviy xizmatlar” sohalari bo’yicha savdolar hajmi mos ravishda 387,36 mlrd so’m va 40,50 mlrd so’mni tashkil qildi. Eng past ko’rsatkichlar “Lizing” tarmog’ida qayd etilib, 72 ta bitim bo’yicha savdolar hajmi 817,68 ming so’mni tashkil etdi.

Eng ko’p bitimlar “Banklar” tarmog’ida qayd etilib, 24 600 ta bitim tuzildi. Keyingi o’rinlarni “Sug’urta” va “Sanoat” tarmoqlari egallab, ular bo’yicha mos ravishda 425,31 mln so’m qiymatidagi 6 993 ta hamda 2 466,19 mln so’m qiymatidagi 5 628 ta bitim tuzildi.

Eng kam bitimlar “Qurilish” va “Lizing” tarmoqlarida qayd etilib, mos ravishda 182 ta va 72 ta bitim tuzildi.


2026-YIL FEVRAL OYIDA TARMOQLAR KESIMIDA TUZILGAN BITIMLAR SONI



BIRJA KATIROVKALASH VARAG’I

Oy oxiridagi holatga ko’ra, “Toshkent” RFB birja kotirovkalari ro’yxatida 94 ta emitentning 152 ta instrumenti mavjud edi.

KATEGORIYA KESIMIDAGI INSTRUMENTLAR SONI:



Shundan:

- 83 - oddiy aksiyalar;
- 38 - imtiyozli aksiyalar;
- 31 - obligatsiyalar.

Hisobot davrida 3 ta obligatsiya kiritildi:
"CONTACT FINANCE" MCHJ /CTFB3B2/,
"Makesense" MCHJ /UZUMN2B3/ va
"Asakabank" AJ /ASAK4B5/.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI

**FEVRAL
2026**

LTSM SAVDOLARI SHARHI


Savdolar hajmi 193,02 mlrd so'm (15,75 mln dollar)ni tashkil etib, 2026-yilning yanvar oyiga nisbatan 114,64 mlrd so'mga (-37,26%) kamaydi. Savdolarning asosiy hajmi (157,28 mlrd so'm) "SME Stock" bozorining Free of Payment (FoP) platformasiga to'g'ri keldi.

Savdolarning eng yuqori hajmi 4-fevral kuni qayd etilib, 160,99 mlrd so'm (13,13 mln dollar)ni tashkil etdi. Eng past hajm esa 3-fevral kuni qayd etilib, 1,09 mln so'm (89,33 dollar)ni tashkil qildi.


Bitimlarning umumiy soni 10 346 tani tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkich 17-fevralda (795 ta bitim), eng pasti esa 3-fevralda (68 ta bitim) qayd etildi.

Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 9,65 mlrd so'm (787,41 ming dollar)ni, o'rtacha kunlik bitimlar soni - 517 tani tashkil etdi.

SAVDOLAR HAJMI, MLN SO'M



SAVDOLAR SONI




LTSM BOZORINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

		2023	2024	2025	2026
Savdolar hajmi	mln so'm	11 235	37 185	386 164	193 021
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	562	1 771	19 308	9 651
Bitta bitim o'rtacha hajmi	mln so'm	21	7	72	19
Bitimlar soni	dona	545	5 080	5 364	10 346
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	27	242	268	517

LTSM MAIN BOARD BO'YICHA TOP 10 AKSIYALAR

“SME Stock” aksiyalari bozorida tuzilgan bitimlar soni va hajmi bo'yicha G1 – “Main Board” maydonidagi aksiyalarning Top-10 ro'yxati.

BITIMLAR SONI BO'YICHA TOP 10



Eng ko'p bitimlar “Uzsanoateksport” AJ /OSNE/ aksiyalari bilan tuzilib, 1 102 ta bitimni tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni “PRESTIGE INSURANCE” AJ /OHMS/ va “Regional electrical power networks” AJ /OHETP/ aksiyalari egallab, ular bo'yicha mos ravishda 722 ta va 503 ta bitim tuzildi. Top-10 ro'yxatini “Uzenergoengineering” AJ /OEIG/ va “YANGIYO'L YOG'-MOY” AJ /OYGY/ aksiyalari yakunlab, ular bilan mos ravishda 354 ta va 330 ta bitim tuzildi.

Bitimlarning eng katta hajmi “DIGITAL BUSINESS AGREGATOR” AJning /ORBA/ oddiy aksiyalari bilan qayd etilib, 20 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu “Main Board” aksiyalari bozorining umumiy hajmining 86,11%ini tashkil etdi. Keyingi o'rinlarni “EUROASIA INSURANCE” AJ /OEIN/ va “Matbuot tarqatuvchi” AJ /OMTQ/ qimmatli qog'ozlari egallab, ular bo'yicha mos ravishda 2,38 mlrd so'm va 266,72 mln so'm hajmida bitimlar tuzildi.

SAVDO HAJMIGA KO'RA TOP-10, MLN SO'M



“Regional electrical power networks” AJ /OHETP/ aksiyalari bilan 19,27 mln so‘m hajmida bitimlar amalga oshirilib, Top-10 ro‘yxatini yakunladi.

Savdolar hajmi bo‘yicha Top-10 aksiyalarning umumiy hajmi 23,02 mlrd so‘mni tashkil etib, ushbu maydonchadagi umumiy hajmning 99,11%ini tashkil etdi.

DISKLEYMER

Ushbu tahlilda keltirilgan ma'lumotlar "Toshkent" Respublika fond birjasi AJ (keyingi o'rinlarda "Toshkent" RFB) mutaxassislari tomonidan tayyorlangan. Ushbu tahliliy material faqat ma'lumot uchun mo'ljallangan bo'lib, "Toshkent" RFB va uning xodimlarining hech qaysi biri ushbu sharhdan yoki undagi ma'lumotlardan foydalanish natijasida kelib chiqqan bevosita yoki bilvosita yo'qotishlar (zararlar) uchun javobgar emas.

"Toshkent" RFB investorlarga muayyan investitsiyalar va strategiyalarni maqsadga muvofiqligini mustaqil baholashga chorlaydi va investorlarni litsenziyalangan investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanishga undaydi.

Ushbu sharh bo'yicha barcha huquqlar "Toshkent" RFBga tegishli. Ushbu tahliliy materialni qisman yoki to'liq ko'paytirish va/yoki tarqatish faqat manbani ko'rsatgan holda amalga oshirilishi shart.

© **"TOSHKENT" RESPUBLIKA FOND BIRJASI AJ**

Birjaviy tahlil "Tahlil va statistika" bo'limi tomonidan tayyorlangan.

Fikr-mulohaza uchun kontaktlar:

E-mail: analytics@uzse.uz

Tel.: +998 555 100 300